

O'zbekiston Olimlaring Inson Falsafasi Haqidagi Qarashlari

Srojeva Gulbahor Vahobovna

Osiyo Xalqaro Universiteti Tarix va filologiya kafedrasи o'qituvchisi

Annotatsiya: Inson tabiat - g'oyat murakkab. Unda hayvoniylar sifatlar mujassamlashgan. Lekin u - hayvon ham, farishta ham emas. Insoniy ruh va ma'naviyat uni boshqa mavjudotlarda yuqori darajaga ko'taradi. Insonni o'rganadigan fan - antropologiya deb yuritiladi, qarash ham biryoqlamalikka olib kelishi, yetilgan ijtimoiy muammolar moxiyatini to'g'ri tushunishga xalaqit berishi mumkin. Mamlakatimizda shakllanayotgan milliy g'oya va milliy mafkura insonga biryoqlama qarashlarga zid ravishda, undagi moddiylik va ma'naviylikni uyg'unlashtirishni taqozo etadi. Bozor iqtisodiyoti kishilarning farovon, boy - badavlat, mulkdor, barcha qulayliklarga ega bo'lishini inkor etmaydi. Aksincha, ularni tadbirkor, uddaburon va mehnatsevar bo'lishga rag'batlanadir. Yuksak ma'naviyatgina inson ehtiyojlarini oqilona qondirishga, ijgimoiy adolat o'rnatib, saxiy va olihimmat bo'lishga undaydi.

Kalit so'zlar: N.Gumilevning passionar, subpassionar odamlar hqidagi ta'limoti. K.Yung arxitiplar nazariyasi. Irratsionalizm ong haqida. Gillozoizm ta'limoti. Antrop kosmologik tamoyil. Ong tabiat. Ongning strukturasi va funktsiyalari. Z.Freyd ongsizlikning tabiat haqida. Ijtimoiy jarayonlarda onglilik va ongsizlikning namoyon bo'lishi. Individual ong va ijtimoiy ong borlig'i. Til ong va tafakkur imkoniyatlari. Klipli tafakkur va texnologik taraqq iyot. Insonga oid teotsentrik yondashuvlar. Insonga nisbatan biologizatorlik va sotsiologizatorlik kontseptsiyalari. Falsafaiy antropologiya va elitologiyaning uyg'unligi Evgenika va bioetika. hayotni tark etish bosqichlari. Suitsid, parasuitsid, evtanaziya va uning shakllari, esxatologiyaning mohiyati. Insonning olamdagi o'rni.

Inson - falsafaning bosh mavzusi. Insonning yaralishi, moxiyati va jamiyatda tutgan o'rni falsafiy muammolar tizimida muhim o'r'in tutadi. Turli falsafiy ta'limotlarda bu masalalar turliha talqin etib kelingan. Shunday bo'lipsh tabiiy ham edi, chunki inson moxdyatan ijgimoiy-tarixiy va madaniy mavjudot sifatida har bir yangi tarixiy sharoitda o'zligini chuqurroq an-glashga, insoniy mohiyatini ro'yobga chiqarishga intilaveradi.

Suqroting «O'zligingai bil» degan xikmatli so'zi har bir tarixiy davrda yangicha ahamiyat kasb etadi. Insonda butun olam va jamiyatning mohiyati mujassamlashgandir. Ulug' mutasavvuf Abdulxoliq G'ijduvoniy insonni «kichik olam» deb hisoblagan. Falsafada baxs yurigiladigan barcha masalalar inson muammo-siga bevosita daxldordir. Umuman olganda, insonga daxddor bo'lmasa, unga foyda keltirmasa, jamiyatning og'irini yengil Qilmasa, unday fanning keragi bormikan? Shu ma'noda, inson, avvallo,o'zi uchun zarur bo'lgan fanlarni, ilmlar va bilimlar tizimshi yaratgan.

Tabiat, madaniyat, siyosat, sivilizatsiya, bilish kabi masalalar inson manfaatlari va insoniy moxdyatning namoyon bo'lish shakllaridir. Ularning barchasi inson tabiatini va Mohiyati bilan bog'liqdir.

Falsafa insonni olamning tarkibiy qismi sifatida o'rganadi. Inson shunday murakkab kab va ko'p qirrali mavjudotki uning mohiyati yaxlit bir butunlik sifatida inson, individuallik tushunchalari orqali ifodalanadi. Bu tushunchalar bir-biriga yaqin va ma'nodosh bo'lsa ham, bir,, biridan farqlanadi.

Inson - o'zida biologik, ijtimoiy va psixik xususiyatlarni mujassamlashtirgan ongli mavjudot. Insonning biologik xususiyatlari ovqatlanish, himoyalanish, surriyot qoldirish sharoitga moslashish kabilalar xos.

Inson boshqa mavjudotlardan soqial xususiyatlari bilaa ajralib turadi. Chunonchi, til, muomala, ramziy belgilar, bilim, ong, mahsulot ishlab chiqarish, taqsimlash, iste'mol qilish, boshqarish, o'z-o'zini idora etish, badiiy ijod, axloq, nutq, tafakkur, qadriyatlar, tabu (ruxsat va ta'qiqlash) shular jumlasidandir.

Insonning psixik xususiyatlariga ruhiy kechinmalar, hayratlanish, g'am-tashvish, qayg'u, iztirob chekish, zavqyaanish, kayfiyat kabilalar kiradi.

Inson shu xususiyatlari orqali yaxlit bir tizimni tashkil etadi. U yaxlit mavjudot sifatida o'z extiyojlarini qondiradi va insoniyat davomiyligini ta'minlaydi. Insonga xos bo'lgan biologik xususiyaglarni ijgimoiy xususiyatlardan ustun qo'yish yoki psixologik xususiyatlarni bo'rtgirish uning mohiyatini buzib talqin etishga, bir yoqlamalikka olib keladi.

Falsafa tarixida inson to'grisidagi ta'limgatlarda biologazm, sotsiologizm, psixologizm kabi yo'naliishlari vujudga kelgan. Biologazm insonning tabiiy-biologik xususiyatlariga, soqiologizm insonning ijgimoiy xususiyatlariga, psixologizm esa, ma'naviy, ruhiy, psixologik xususiyatlariga* bir yoqlama yondashishga asoslangan edi.

Inson tarixning yaratuvchisi sifatida tabiat taraqqiyotidagi uzlusizlikni ta'minlaydi. U o'z bilimi, tajribasi va yutuqiarini kelgusi avlodlarga meros qilib qoldiradi; tabiat va jamiyatni qayta quradi va takomillashtiradi. Inson o'z aqii tufayli butun koinot, tabiat taraqqiyotida buyuk yaratuvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi, o'z tarixini yaratadi, uni avaylab-asraydi. Inson faoliyati va tajribalari jamiyatning takomillashuvi va kishilarning har tomonlama kamol topishi uchun manba bo'lib xizmat qiladi.

Tabiat va jamiyatdagi o'rni va ahamiyati, yaratuvchilik mohiyati, oliy mavjudot ekani, vorislikning davomiyligini ta'minlashi barcha ijobiy va foydali nuqtalarni saqlashi va tarib etishi kabi xususiyati va qobiliyati tufayli inson muqaddas va tabarruk qadriyat hisoblanadi. Antropologiya insondagi insoniylikning namoyon bo'lish va rivojlanishini ruh bilan bog'laydi. Ayrim tadqiqotchilar insonga xos bo'lgan biror-bir xususiyatga alohida urg'u bergen va shu orqali insoniy mohiyatni ochib berishga harakat qilgan. Masalan, I. Kant insondagi axloqiy jihatlarga ko'proq e'tibor bergen va uni ezgulikni yovuzlikdan farqlovchi mavjudod sifatida ta'riflagan. Vladimir Solovyev insonning bosh mavjudotlardan farqini uyalish, achinish va oliy kuchlarga sig'inish kabi xususiyatlarda, deb bilgan. Uning fikricha, inson o'zining tuban mayllari va gunohlaridan uyalish qobiliyatiga ega. Faqat odamlarga emas, balki butun tirik jonga achinish va muqaddas kuchlarga sig'inish insongagina xos.

Inson tabiat - g'oyat murakkab. Unda hayvoniy va ilohiy sifatlar mujassamlashgan. Lekin u - hayvon ham, farishta ham emas. Insoniy ruh va ma'naviyat uni boshqa mavjudotlarda yuqori darajaga ko'taradi. Insonni o'rganadigan fan - antropologiya deb yuritiladi, qarash ham biryoqlamalikka olib kelishi, yetilgan ijtimoiy muammolar moxiyatini to'g'ri tushunishga xalaqit berishi mumkin. Mamlakatimizda shakllanayotgan milliy g'oya va milliy mafkura insonga biryoqlama qarashlarga zid ravishda, undagi moddiylik va ma'naviylikni uyg'unlashtirishni taqozo etadi. Bozor iqtisodiyoti kishilarning farovon, boy - badavlat, mulkdor, barcha qulayliklarga ega bo'lishini inkor etmaydi. Aksincha, ularni tadbirkor, uddaburon va mehnatsevar bo'lishga rag'batlantiradi. Yuksak ma'naviyatgina inson ehtiyojlarini oqilona qondirishga, ijgimoiy adolat o'rnatib, saxiy va olihimmat bo'lishga undaydi.

Insonning mohiyatini tushunishga harakat qilish jarayonida u nafaqat tashqi, balki ichki, pinhona xususiyatlarga ham ega ekanligini, ular jamuljam holda insonning individ, individuallik, shaxs kabi tushunchalarda aks etadigan muayyan obrazini shakllantirishini ham hisobga olish lozim. Boshqacha aytganda, insonning mohiyatini uning ichki va tashqi borlig'i birligida, uning dunyoga faol munosabatida izlash kerak.

Shaxs tushunchasini “individ” tushunchasidan farqlash lozim. Individuallik haqida turli darajada gapirish mumkin. Masalan, bioximik, neyrofiziologik, psixologik va hokazo. Lekin bu individuallik shaxs tushunchasini to‘liq aks ettirmaydi. Shaxs esa ong va o‘z-o‘zini anglash paydo bo‘lishi bilan yuzaga keladi.

Falsafiy-qomusiy lug‘atda individ tushunchasini, aniqrog‘i individualizmni (lotincha - bo‘linmas) inson shaxsiy hayotining alohidaligi, shaxs huquqlarining mutloqligini va avtonomiyasini ifodalovchi falsafiy axloqiy tamoyil, deb ta’riflangan.

“Vatan tuyg‘usi” kitobida ta’kidlanishicha, individ degan tushuncha lotincha “individium” degan so‘zdan kelib chiqqan, “bo‘linmaydigan” degan ma’noni anglatadigan bu atama mustaqil yashaydigan tirik vujud, har bir shaxs, hayvon va o‘simplikni bildiradi.

“Individ” va “individualizm” bir-biriga yaqin atamalar bo‘lsa ham har birining o‘ziga xos mazmun va mohiyati bor. Agar individ deganda mustaqil yashaydigan tirik vujud, shaxsni tushunilsa, individualizmning kelib chiqishi falsafa qomusiy lug‘atida to‘g‘ri yozilishicha, uning mohiyatini asoslashga qaratilgan qarashlar shaxsni jamoaga qarama-qarshi qo‘yish, shaxsiy manfaatlarni jamiyat manfaatlariidan ustun qo‘yishni ifodalovchi tamoyil sifatida xususiy mulkning paydo bo‘lishi bilan bir paytda shakllangan.

Falsafada qabul qilingan individ tushunchasi uzoq tarixiy davrga borib taqaladi. Uning shakllanish davrining boshlanishi ibridoij jamoa bosqichiga to‘g‘ri keladi. Uning jismoniy mav-judligi, individ sifatida mustaqilligi o‘zi mansub bo‘lgan urug‘ jamoasi doirasida bo‘ladi.

Akademik Erkin Yusupov “Falsafa” o‘quv qo‘llanmasida, “Urug‘ jamoasining yemirilishi bilan asta-sekin ijtimoiy mehnat taqsimoti, xususiy mulkchilik bir xotinlikka asoslangan oilaning qaror topishi inson rivojlanishida individdan yuksak bo‘lgan yangi bosqich kelib chiqishini ta‘minlaydi”, deb yozadi.

Darhaqiqat, ijtimoiy taraqqiyotning keyingi yuqori bosqichlarida insondagi individuallik, boshqacha qilib aytganda, alohidalik yo‘qolib ketmaydi, aksincha unda bu xususiyatlar ob‘ektiv ravishda inson xususiyatlarini ifodalovchi bo‘lib davom etaveradi. Insondagi individuallik uning hayoti, faoliyatining barcha sohalarida namoyon bo‘ladigan o‘ziga xos sifatlaridir. Individuallik alohida olingen insonning aniq hatti harakati, malakasi, layoqati, odat va ko‘nikmalarini ifodalaydi.

Jamiyatda moddiy ishlab chiqarishni amalga oshirish, siyosiy, ma’naviy-madaniy ishlarda ishtirok etish, fan va san‘at sohalarida noyob asarlarni ijod va kashfiyot qilish, umuman olganda ko‘plab burchlarning bajarilishida ana shu individuallik namoyon bo‘ladi, ya’ni bunda ijodiylik hukm suradi. Individuallikda insonning ichki va tashqi betakror xususiyatlari shakllanganligi uchun boshqalardan farq qilib turadi.

Individualizm atamasini sharq va Farb mutafakkirlari o‘ziga xos mazmunda ishlatib kelganlar. Farb olimlari individualizmga lotincha individium – bo‘linmas, ya’ni inson shaxsiy hayotining alohidaligi sifatida qaraganlar, sharqda esa, fard arabchadagi yakka, yolg‘iz ma’nosida ishlatilib, uning mazmuni keng qamrovli ekanligiga e’tibor qaratilgan.

O‘rta asr oxirlaridan boshlab individ (fard) jamoadagi o‘z o‘rnini topgan shaxsga nisbatan ishlatilgan, individuallikning shaxsdan farqi individning betakrorligi, alohidaligi va o‘ziga xosligidir.

Olimlarning tadqiqotlarida individ, ya’ni fardning sharq mutafakkirlari ijodidagi tahliliga e’tibor qaratilgan. Masalan, B.Sh.Karimovning “Am‘aq Buxoriyning ijtimoiy qarashlari” (sotsiologik tahlil) nomli nomzodlik dissertatsiyasida fard so‘zining bir necha, ya’ni: yagona, yakka, mujarrad, hamrohsiz, o‘zgalarga o‘xshamaydigan benazir, bir kishi, bir nafar, ajralgan, yakka o‘zi ma’nolarga egaligi qayd qilingan.

Individuallik (fard) dagi keng qamrovli mazmunning ifodalanishi muayyan jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-axloqiy zaruriyatlar oldinga suradigan talab va ehtiyojlar orqali namoyon bo‘ladi. Masalan, IX-XV asrlarda Markaziy Osiyoda yashagan mutafakkirlar falsafa, fan, din va

san'atda shunday yangi fikrlarni aytishga muvaffaq bo'ldilarki, ular nafaqat o'z davrlari uchun, balki keyingi davrlar uchun ham ulkan ahamiyatga ega bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vahobovna, S. G. (2024). XX ASR BOSHLARIDA XITOYNING YAPON AGRESSIYASIGA QARSHI KURASHI. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 4(5), 264-273.
2. Srojeva, G. (2024). 1929-1932-YILLARDAGI JAHON IQTISODIY INQIROZI DAVRIDA YAPONIYA. *NRJ*, 1(2), 118-128.
3. Vahobovna, S. G. (2024). Canada during the world economic crisis of 1929-1933. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 4(4), 48-54.
4. Srojeva, G. . . (2024). ATTENTION PAID TO PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS IN NEW UZBEKISTAN. *Modern Science and Research*, 3(2), 258–266. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/30750>
5. Srojeva, G. (2024). THE CANADIAN ECONOMY DURING THE GLOBAL ECONOMIC CRISIS. *Modern Science and Research*, 3(2), 57–63. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/30678>
6. Vahobovna, S. G. (2024). Vahobovna, S. G. (2024). Role of Preschool Educational Institutions in Education of a Perfect Person. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(3), 208-214.
7. Vahobovna, S. G. (2023). QUYI ZARAFSHON VOHASI TURIZM IMKONIYATLARI.
8. Srojeva, G. . (2024). STRENGTHENING THE MATERIAL AND TECHNICAL BASE OF PRESCHOOL EDUCATION AND TRAINING INSTITUTIONS. *Modern Science and Research*, 3(2), 673–681. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/29450>
9. Srojeva, G. (2024). INTERNATIONAL COOPERATION IN THE FIELD OF EDUCATION. *Modern Science and Research*, 3(2), 1041–1050. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/29547>
10. Srojeva , G. . (2024). SOLUTIONS, RESULTS AND PROBLEMS OF REFORMS IN THE FIELD OF EDUCATION. *Modern Science and Research*, 3(1), 782–788.
11. Srojeva, G. (2024). EFFECTIVE FORMS OF SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION AND EDUCATIONAL WORK IN A PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTION. *Modern Science and Research*, 3(2), 247–253. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/29010>
12. Vahobovna, S. G. (2021). Khoja Abdulkhaliq Ghijduvani And Its Method. *European Journal of Humanities and Educational Advancements*, 2(10), 39-40.
13. Gulbahor, S. (2023). CONTINUITY IN EDUCATION-CHIEF MEZON. *Modern Science and Research*, 2, 834-839.
14. Srojeva, G. (2023). LOWER ZARAFSHAN OASIS TOURISM OPPORTUNITIES. *Modern Science and Research*, 2(10), 199–204.
15. Srojeva, G. (2023). Continuity in Education-Chief Mezon. *Modern Science and Research*, 2(12), 834–839. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/27238>
16. Vahobovna, S. G. (2024). YANGI O'ZBEKİSTONDA MAK TABGACHA TA'LIM-TARBIYA MUASSASALARIGA QARATILAYATGAN E'TIBOR.

17. Vahobovna, S. G. (2024). MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASIDA MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYA VA MA'RIFIY ISHLARNING SAMARALI SHAKLLARI.
18. Vahobovna, S. G. (2024). TALIM SOHASIDAGI ISLOHATLAR ECHIMI, NATIJALARI VA MUAMMOLARI.
19. Vahobovna, S. G. (2024). MAKTABGACHA TA'LIM-TARBIYA MUASSASALARI MODDIY TEXNIKA BAZASINI MUSTAHKAMLASH.
20. Srojeva, G. (2024). TA'LIM SOHASIDA XALQARO HAMKORLIK..
21. Vahobovna, S. G. (2024). JAHON IQTISODIY INQIROZI DAVRIDA KANADA IQTISODIYOTI.
22. Vahobovna, S. G. (2023). TA'LIMDA UZVIYLIK-BOSH ME'ZON.